



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK TABIATI: SHAKL VA MA’NO UYG‘UNLIGI

### THE LINGUOPOETIC NATURE OF PHRASEOLOGICAL UNITS: THE HARMONY OF FORM AND MEANING

**Mirzohid Tursunov Ikromjon o‘g‘li**

O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: [tursunov.mirzohid1995@gmail.com](mailto:tursunov.mirzohid1995@gmail.com)

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./YKRW5158](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./YKRW5158)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Ahmad A‘zam asarlarida qo‘llangan frazeologizmlarning lingvopoetik ahamiyati haqida so‘z boradi. Shuningdek, shevalarda mavjud bo‘lgan frazeologizmlarning adabiy tildagi iboralar bilan o‘zaro qiyosi haqida ham fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** folklorizm, lingvopoetika, badiiy til, obrazlilik, estetik vazifa, badiiy matn tahlili, poetik ma‘no, metaforiklik, milliy kolorit.

**Annotation.** This article discusses the linguopoetic significance of phraseological units used in the works of Ahmad A‘zam. It also presents an analysis of the comparative relationship between phraseological units found in regional dialects and those of the standard literary language.

**Keywords:** folklorism, linguo poetics, literary language, imagery, aesthetic function, literary text analysis, poetic meaning, metaphoricality, national coloring.

Frazeologizmlar har bir tilning boyligidir va xalqning dunyoqarashi, madaniyati hamda tarixiy tajribasini o‘zida aks ettiradi. Ular tilda obrazlilik, ta’sirchanlik va ifoda go‘zalligini ta’minlaydi. Shu bois, frazeologik birliklarning kelib chiqishi va ularning qo‘llanilishi alohida o‘rganishga loyiqdir. Tilshunos olim N.Mahmudov “Hech shubhasizki, til o‘ziga muhtasham mazmun va muntazam mohiyat ato etadigan barcha katta-kichik birliklarning teran va tarang tashakkuli, tanosibi, ayni paytda tinimsiz takomili tufayli betimsol sinoatli tilsim o‘laroq asrlar osha tirikdir. Shu narsa ham ochiq haqiqatki, bu tilsim silsilasida lug‘aviy birliklar favqulodda ayricha o‘ringa sohibdir... Tilning chinakam sehr-u joduli lug‘aviy birliklari olamida yana bir mutlaqo uzviy qatlam mavjudki, uni mutaxassislar “iboralar” yoki “frazeologizmlar” // “frazeologik birliklar” termini bilan ataydilar” deb o‘z tadqiqotida qayd qilgan. [Махмудов, 2022: 3]

A.Mamatov ta'kidlaganidek, frazeologizmlar “u yoki bu xalqning yashayotgan joyining tabiati, iqtisodiy tuzumi, tarixi, madaniyati, hayot tarzi, og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odati, dini kabilar bilan bog'lanadi” [Mamatov, 1994: 50]. Sh.Toshxo'jayevaning fikricha, “frazeologizmlar fikrni obrazli, ixcham va qisqa ifodalashga xizmat qiladi. Badiiy asarlarda frazeologik iboralardan voqelikni obrazli tasvirlash, uni kitobxon ko'z o'ngida aniq va to'la gavdalantirish maqsadida foydalanilishi ma'lum” [Тошхўжаева, 2016: 104]. Shu bois ham yozuvchilar badiiy adabiyotda iboralardan lingvopoetik vosita sifatida foydalanadi, badiiy asarlar tilini jonlantiradi, kommunikativ niyat ta'sirchan vosita ko'magida voqelantiradi, personaj, obraz va qahramonlar nutqida iboralarni qo'llash orqali xarakterni shakllantiradi, shuningdek, asarga o'zgacha poetik yuk beradi.

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklar tadqiqi masalasi ko'p yillardan buyon tilshunoslarning e'tiborini jalb qilib kelmoqda. Xususan, ayni paytga qadar Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, A.Rafiyev, Sh.Almamatova va boshqalar tomonidan batafsil tadqiq qilingan.

Sh.Rahmatullayev o'z ishlarida frazeologizmlarning ma'no xususiyatlari, shakl va ma'no munosabatlari xususida monografik tadqiqotlar bilan birga, o'zbek tilining frazeologik lug'atini tuzdi va bu bilan o'zbek tilshunosligiga katta hissa qo'shdi. B.Yo'ldoshev frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlari, A.Mamatov esa frazeologizmlarning shakllanish jarayonlari xususidagi tadqiqotlari bilan o'zbek tili frazeologiyasining alohida tarmoq sifatida shakllanishiga hissa qo'shmoqdalar.

M.Yo'ldoshev haqli ta'kidlaganidek, “iboralardagi obrazlilik hamisha sezilib turganligidan, semantik sig'imida konnotatsiya ustivor bo'lganligidan so'zga qaraganda ular badiiy mazmunga faolroq xizmat qiladi. Hayotdagi xilma-xil voqea-hodisalarning tagiga yetish, turli-tuman harakat-holatlariga baho berish, katta-kichik tajribalarni umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalari bo'lmish frazeologik iboralar badiiy matnda deyarli hamish poetik aktual bo'ladi. Shuning uchun ham iboralar badiiy matnning lingvopoetik tahlilida alohida o'rin tutadi”. [Yo'ldoshev, 2019: 195-196]

Ahmad A'zam xalqda keng tarqalgan umumtil iboralarni badiiy nutqqa olib kirish bilan kifoyalanib qolmaydi, balki ularni qahramonlar tabiati, ruhiy holati, turmush tarziga moslab o'zgartiradi. Ularga yangicha ma'no noziklari yuklab, asarlarining badiiy estetik va lingvopoetik salmog'ini oshirishga erishadi.

Har qanday yozuvchi iste'dodi, til boyligi, xalq iboralari, matallari, keng iste'molda bo'lgan faol birliklardan to'yinadi [Тошхўжаева, 2016: 106]. A.A'zam, avvalo, qahramonlarining tashqi qiyofasi bilan birga, ma'naviy dunyosini ham, psixologiyasini ham ishonarli va jonli qilib tasvirlash maqsadida frazeologik



iboralardan samarali foydalanadi. Shuningdek, ularning ruhiy holatidagi tig'iz tasvirlarni ifodalashda ham aynan frazeologizmlarga murojaat qiladi. Muayyan bir tasvirda bir necha ana shunday birliklarni ketma-ket keltirish orqali qahramonning ahvoli, ruhiyatini obrazli tasvirlay oladi. Muallif nutqida, ba'zan qahramonlar nutqida qo'llangan iboralar esa asarning badiiy quvvatini oshirish va ta'sir kuchini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, *Boshqa qishloq, boshqa urug'dan bir sohibjamol malak bilan ahd-paymon qilib, qizning otasi, qarindoshlari qarshiligini qanday yengishni bilmay, boshi qotib yurgan kezlar.* (Asqartog' tomonlarda, 27). Ushbu gapda foydalanilgan ibora umumtil leksikamizda faol ishlatilib kelinadigan “bosh” komponenti bilan bog'liq iboralardan hisoblanib, “uzoq o'ylab ham aniq bir fikrga kela olmaslik” [Рахматуллаев, 1978: 53] ma'nosini ifodalaydi. Mazkur ibora muallif nutqida asar qahramonlaridan biri bo'lgan cholning ruhiy holatini ochib berish, yozuvchining poetik maqsadi va badiiy-estetik vazifasini ro'yobga chiqarishda qo'l kelgan.

Yozuvchilar tomonidan xalq iboralarini “qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xil. Bunga ibora ma'nosini ikkinchi bir ottenka bilan to'ldirish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish va kengaytirish, yangi iboralar yaratishda majoziy maqollar zamiridagi obrazlardan foydalanish kabi holatlarni ko'rsatish mumkin” [Шомаксюдов, 1974: 56].

Frazeologizmlar nafaqat tilning ifoda boyligini, balki xalqning estetik didi va badiiy tafakkurini ham namoyon etadi. Ularning lingvopoetik tahlili obrazlilik, emotsional ifoda va semantik qatlamlarning qanday uyg'unlashganini ochib beradi. Bu esa frazeologizmlarni adabiy matnlar tahlilida muhim vosita sifatida o'rganish zaruratini tug'diradi. Tadqiqotimiz davomida Ahmad A'zam asarlarida iboralarning o'zgarishsiz qo'llangan shakli ham, shuningdek, ayrim qismlari o'zgartirilgan holda qo'llangan shakllari ham aniqlandi. Ta'kidlab o'tish joizki, yozuvchi asarlarida qo'llangan iboralarning katta qismi Samarqand, Farg'ona viloyatlari shevasiga xos hisoblanadi va biz quyida tahlilga tortgan iboralarning katta qismi ham aynan Samarqand, Farg'ona viloyatlari vakillari nutqida faol qo'llanadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek ijodkor asarlarida qo'llangan iboralarning tarkibi biroz o'zgarishga uchragan holda ishlatilgan. Bu o'z-o'zidan iboralarning mazmuniy va shakliy strukturasiidagi variant belgi sifatida saqlanishidir. Masalan, adabiy nutqda *og'ziga kelganini gapirmoq* umumtil iborasi bo'lib, bu birlik “daf'atan nimani aytish fikri tug'ilsa, shuni demoq” [Rahmatullayev va boshqalar, 2022: 375] ma'nosini bildiradi. “Quroq” qissasida muallif tilidan mazkur iboraning o'zgargan varianti qo'llangan. Oddiygina qilib, har nimani gapiravermayman deyishi ham mumkin edi. Biroq yozuvchi poetik yukni kuchaytirish uchun xalq tiliga xos bo'lgan *og'ziga*

*kelganini gapirmoq* iborasini *og'ziga kelganini qo'yib yuboravermas* shaklida o'zgartirgan, natijada yangilangan ibora kuchli poetik ta'kid olgan: *Gapim tegib ketmasin, bilaman, o'zingiz ham toriqqansiz bunaqa gaplardan, bilgan odam toriqadi, albatta. Ana, shuning uchun xitlanavermay, bo'lar ekan-da shunaqa, ajabey, qani, eshitaylikchi, shuncha eshitganimizning biri-da, deb ko'ngilga kenglik bering, bu bir gurung, diqqatingizni yozadi, kamina ham og'ziga kelganini qo'yib yuboravermas, aytadigan gapimni orqa-oldimga qarab, sizning nima deyishingizga to'g'rilab gapiraman. Balki tagidan boshqa gaplar chiqib qolar.* (Quroq, 1)

Ahmad A'zam asarlarida iboralarning asosan milliy til uchun umumiy bo'lgan variantlari qo'llangan. Shuningdek, ayrim hollarda adabiy tilda qo'llanuvchi muayyan ibora o'zining shevaviy variant(lar)iga ega ham bo'lishi mumkin. Ayni holat yozuvchi asarlarida ham kuzatildi va quyidagicha guruhlashtirildi:

1. Tarkibidagi bitta so'z (yoki birikma) bilan farqlanuvchi (ammo mazmunan ma'nodosh) variant: *Ko'zining siydigini oqizib – ko'zingning suvini oqizib; aqli yetmaslik – kallasi yetmaslik; katta buvisini ko'ziga ko'rsatmoq – kunini ko'rsatmoq.*

2. Tarkibi jihatidan o'zgacha, faqat mazmunan ma'nodosh variantlar: *devorini teskari urgan – arpasini xom o'rmoq; qaytish qilmoq – joni chiqmoq.*

Nutqda “ozmi-ko'pmi tanishligi bor, juda uzoq” [Rahmatullayev va boshqalar, 2022: 335] ma'nosini ifodalaydigan *oftobda qatiq ichishgan* iborasi mavjud. Mazkur ibora nutqda asosan kesatliq ma'nosini ifodalab keladi. Yozuvch mazkur iboraga sinonim sifatida *qatiq yalashib yurmoq* iborasini qo'llab, fikrning poetik yukini yanada oshirishga erishgan: *Agar shu baxmal bilan ko'mishganda, hozir Isrofil degan jo'rang bo'lmasdi, kim qaysi to'nkalar bilan qatiq yalashib yurarding...* (Asqartog' tomonlarda, 10) Ushbu jumla tarkibidagi ibora o'zbek xalq og'zaki ijodi va kundalik hayotiy tajriba asosida shakllangan obrazli, emotsional kuchga ega bo'lgan frazeologik birikmadir. Iborada ijtimoiy mavqe, insoniy qadriyat, taqdir va tanlov singari chuqur tushunchalar obrazli vositalar orqali yoritilgan. Bu kabi iboralar **xalq ruhiyatini, kundalik hayotdagi kinoya va achchiq haqiqatlarni** o'zida mujassam etgan bo'lib, ushbu **badiiy asarda** ham qahramonlarning ichki dunyosi, o'zaro ziddiyatlari va ijtimoiy muhitni ochib berishda katta poetik yuk tashigan. Mazkur iboraga ergashib kelgan to'nka so'zi orqali ham o'ziga xos **ahmoq, keraksiz, yaramas odam** ma'nosidagi istehzoli metafora yuzaga kelgan.

Jonli nutqda “nima yomonlik qildi?!” ma'nosini ifodalovchi *arpasini xom o'rmoq* [Rahmatullayev va boshqalar, 2022: 46] iborasi keng tarqalgan. Adib mazkur iboraning sinonimi sifatida “Quroq” qissasida *devoringizni teskari urib qo'ygan yerim bormi* iborasini qo'llagan. Bu ibora orqali asar bosh qahramoni do'stini uyiga

taklif qilishi, do'stining esa uning uyiga mehmonga kelmayotganligidan norozilik holati kuchli ifodalangan. Shuningdek, ayni iboraning xalq og'zaki ijodiga xosligi, o'zbekona muloyimlik va andishalilikni ifodalashi, ya'ni do'stiga bo'lgan hurmatni, suhbatdagi yumshoqlik va insoniylik ohangini, qahramon xarakterini ochishdagi ahamiyati salmoqlidir: *Hayron bo'ldim, mayli, deb, o'g'limga oborchi meni, nima gap ekan, deb bilgim kelib bordim. Uchrashdik, ko'rishdik, qahvaxonada undan-undan so'rashib, gapimiz singishgandek keyin, nimaga uyga o'tmayapsiz, devoringizni teskari urib qo'ygan yerim bormi, deb so'radim. U birdan hurkdi, hurkib, anavi Lotin Amerikasi tog'larida yuradigan guanako – lamaning beboshvog'iga o'xshab boshini tik ko'tardi, “E-e, men uyingizga bormayman”, dedi. Bilmay ko'nglini og'ritib qo'yganman shekilli, deb ko'nglim g'ashlandi.* (Quroq, 32)

Adabiy tilda ***aql o'rgatmoq*** iborasi mavjud bo'lib, u “biror shart-sharoitda nima qilish kerakligi bo'yicha ko'rsatmalar bermoq” [Rahmatullayev va boshqalar, 2022: 41] ma'nosini anglatadi. Ahmad A'zam o'zining “Quroq” qissasida bosh qahramon tilidan Ismat akaning ichki tafakkuri va ruhiy holatini ifodalash, shuningdek, tasvirlanayotgan holat va harakatni bo'rttirib ifodalashga xizmat qilish maqsadida ***aql beryapti*** iborasini qo'llagan. Bu orqali jonli xalq tilida mavjud bo'lgan iboraga poetik yuk yuklagan, ya'ni ma'noni kuchaytirishni maqsad qilgan: *Hali ish boshlangani yo'q, Eshim kal loy pishityapti, Safar aka, andavasini tozalayapti, hamsoya nevarasi Nurali loyxona labiga paqirlarni qator qilib teryapti, Ismat aka Eshim kalga loy pishitishdan aql beryapti, Olmos aka ish oldidan choyni bostirib ichyapti, Eshdavlat ayvon tomida, loy tortishga arqon shaylayapti.* (Quroq, 34)

Ahmad A'zam ijodida iboralarning o'zgarishsiz qo'llangan shaklini ham, umuman yangicha shaklini ham yuqoridagi misollar asosida ko'rdik. Ijodkor asarlarida kam o'rinda qo'llanga bo'lsa-da tarkibi kengaytirilgan iboralar ham uchradi. Xalqimiz nutqida “hal etilishi qiyin muammoga duch kelib azobda qolmoq” [Rahmatullayev va boshqalar, 2022: 247] ma'nosini bildiruvchi ***kunini ko'rsatmoq*** frazeologizmi mavjud. Yozuvchi “Ro'yo yoxud G'ulistonga safar” romanida mazkur ibora ***kunini ko'ziga ko'rsatmoq*** shaklida qo'llangan. Ibora bosh qahramonning ruhiy holatini ifodalashga va ekspressiyani ortiq darajada kuchaytirishga imkon bergan: *Birontasi G'ulistonda bo'lmagan, g'uliy nimaligidan butkul bexabar, bu ahvolda olib borsam, insonni kishanband qilibsam, deb kunimni ko'zimga ko'rsatarlar.* (Ro'yo yuxud G'ulistonga safar, 285)

“Frazema gap tarkibida boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishar ekan, ba'zan aniqlik kiritishni, konkret shart-sharoitga moslashishni talab qiladi. Ana shunday hollarda ibora komponentlaridan biri boshqa so'z bilan almashtiriladi” [Йулдошев, 1998: 130]. Ibora tarkibidagi so'z yoki leksema boshqasiga almashtirilganda

frazeologizmning ma'nosi kuchayadi va iboraning lingvopoetik yuki anchayin salmoqli bo'ladi. “O'zbek tilining frazeologik lug'ati”da *ko'z yoshi to'kmoq* yoki *ko'zi yoshi qilmoq* frazeologizmlari mavjud bo'lib, “qattiq yig'lamoq”, “biroz yig'lab olmoq” [Rahmatullayev va boshqalar, 2022: 257-258] ma'nolarini ifodalaydi. Ahmad A'zam hikoyalarida mazkur iboralarning o'zgargan shaklini, ya'ni adabiy tilda noodatiy metafora, lekin dialektida jonli ifoda hisoblangan *ko'zining siydigini oqizmoq*, *ko'zining suvini oqizmoq* iboralarini qo'llagan. Yozuvchi hikoyalarida ayni iboralarni qo'llash orqali badiiy-poetik salmoqni sezilarli darajada oshirgan. Adib “Dutor bilan tanbur” hikoyasida oddiygina qilib *ko'z yoshi qilib* iborasini qo'llaganida iboraning lingvopoetik va stilistik ahamiyati ko'zga ko'rinmas edi. Javhar akaning Ma'murga aytayotgan fikri lingvopoetik yuk olmagan, hissiy-ekspressivlik yuqori darajada bo'lmas edi: *Javhar akaning jag' mushaklari o'ynab ketdi. “Hozir og'ziga biron taning bilagi to'g'ri kelsa, g'arch uzib olsa kerak”, deb seskandi Sobir. – Qanday qabul qilmayman? – deb vag'irladi Javhar aka. – Ko'zining siydigini oqizib sizning oldingizga kiradi, siz yo'q demasangiz... (Dutor bilan tanbur, 10)*

Ahmad A'zam o'z asarlarida frazeologizmlarni maromiga yetkazib, o'z o'rnida qo'llaydigan ijodkor. Ayni frazeologizm asarda yuqori darajada obrazli, emotsional va stilistik yuklama bilan boyitilgan ibora bo'lib, u personajlararo munosabatni keskin ifodalashga xizmat qilgan. Adib *ko'zining siydigini oqizmoq* iborasiga ma'nodosh sifatida “Oyning gardishi” hikoyasida *ko'zining suvini oqizmoq* iborasini qo'llaydi: – *E, sal gapga ko'zining suvini oqizasan. Qanaqa noshudsan o'zi! Artma yenging bilan. Qara, yaltirab ketibdi. Hayf-e senga ko'ylak! Semiz-semiz kitoblarni o'qiysan-u, burningni yenging bilan artasan. (Oyning gardishi, 3)*

*Nihoyat meni yolg'iz qo'yib chiqib ketishdi. Yaxshi bo'ldi, shu uch-to'rt soat ichida ko'rganlarimni o'bdon o'ylab olishim kerak edi. Lekin yolg'iz qolishim bilan xayollarimning itligi tutib, fikrlarimni talay boshladi. (Ro'yo yuxud G'ulistonga safar, 53).* Mazkur jumla tarkibidagi *xayollarimning itligi tutib* iborasi badiiy jihatdan o'ziga xos bo'lib, emotsional-psixologik holatni ramziy va obrazli vosita bilan ochib beradi, shuningdek, juda kuchli lingvopoetik ifodaga ega. “Itlik tutish”, odatda, odamga nisbatan salbiy holatni ifodalaydi (masalan, xatti-harakatda sharmandali, tajovuzkor, to'satdan yomonlashgan holat). Uni “xayol”ga ko'chirish – badiiy transpozitsiya, ya'ni insoniy bo'lmagan sifatni ichki kechinmaga ko'chirishdir. “Itlik tutish” iborasi xalq orasida odamning axloqan yomonlashuvi uchun ishlatiladi. Muallif bu iborani ruhiy holatga ko'chirib, ichki kechinmaning hayvoniylashuvini tasvirlaydi. *Xayollarimning itligi tutib* iborasi o'zbek tilining xalqona, hissiy boy qatlamidan olingan metafora bo'lib, ruhiy iztirobni hayvoniy, yovvoyi obraz orqali ochib beruvchi kuchli lingvopoetik ifodadir.



Xullas, frazeologik birliklar yozuvchi asarlari nutqining jonli, obrazli va ta'sirchan ifodalashga xizmat qilib, ifodalanayotgan voqelikni badiiylashtirishda, epik turga xos syujetning poetik xususiyatini kitobxon tafakkurida obrazli ifodalanishida yetakchi lisoniy vositaga aylanadi va haqiqiy ma'noda lingvopoetik qiymat kasb etadi. Ahmad A'zam faqat umumtil iboralarini qo'llash bilan qanoatlanib qolmay, balki bunday iboralarga turli o'zgartirishlar kiritib, ularning qo'llanish doiralarini kengaytirgan. Adabiy tilga yaqin bo'lgan iboralarning qo'llanishi kitobxonning badiiy asarni o'qishdagi tasavvurini boyitishga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar:

1. Махмудов Н. Иборалар ва уларнинг луғавий тавсифига чизгилар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2022. – № 3. – Б. 3 – 13.
2. Маматов А. Ўзбек тилида фразеологик ибораларнинг шаклланиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994. № 4. – Б. 50.
3. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.
5. Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси. Монография. – Тошкент: “Mumtoz so'z”, 2016.
6. Йулдошев М. Фразеологик услубият асослари: Укув кулланма. – Самарканд, 1998. – 204 б.
7. Шомақсудов А. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1974. – 66 б.